

---

## **Murakkab sintaktik qurilmalarning derivatsion va semantik xususiyatlari: nazariy asoslar va tahliliy yondashuvlar**

**Xamrayeva Zebiniso Xaydar qizi**  
[zebinisoxamrayeva25@gmail.com](mailto:zebinisoxamrayeva25@gmail.com)  
Dotsent, PhD,  
Samarqand davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada murakkab sintaktik qurilmalar tushunchasining mohiyati, ularning shakllanishida sintaktik va semantik omillarning o'zaro bog'liqligi hamda tilshunoslikdagi nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda qo'shma gaplarning turli tiplari – bog'langan, ergashgan, aralash, period va prozaik strofa kabi sintaktik birliklar murakkab sintaktik qurilmalar doirasida ko'rib chiqiladi. Til va nutqning o'zaro munosabati, ularning struktural, derivatsion va kommunikativ xususiyatlari masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ch. Xokket, N. Chomskiy, O. Yespersen, G. Paul, J. Antuan kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ularning sintaktik derivatsiya va tub struktura haqidagi fikrlarining umumiy hamda farqli jihatlari yoritilgan. G. Paulning ikki komponentli qo'shma gaplar haqidagi "komponentlarning biri ikkinchisini izohlaydi" degan g'oyasi misollar orqali asoslanib, bu holat murakkab sintaktik qurilmalarning semantik mohiyatini ochib beruvchi muhim belgi sifatida talqin etiladi. Maqolada shuningdek, turk va rus tilshunosligi manbalaridagi qarashlar solishtirilib, matn sintaksisi masalalarining hozircha to'liq yechim topmaganligi ta'kidlanadi. Tadqiqot yakunida murakkab sintaktik qurilmalarni tahlil qilishda nutq va matnning o'zaro aloqasi, shuningdek, matnning gapdan katta birlik sifatidagi maqomi ilmiy asosda bayon etiladi.*

**Kalit so'zlar** *Murakkab sintaktik qurilma, derivatsiya, semantika, qo'shma gap, matn sintaksisi, tub struktura, komponentlararo munosabat*

---

## **Сложные синтаксические конструкции: деривационные и семантические особенности (теоретические основы и аналитические подходы)**

**Хамраева Зебинисо Хайдар кизи**  
[zebinisoxamrayeva25@gmail.com](mailto:zebinisoxamrayeva25@gmail.com)  
Доцент, PhD,  
Самаркандский государственный  
институт иностранных языков

**Аннотация** *В данной статье рассматривается сущность понятия сложных синтаксических конструкций, взаимосвязь синтаксических и семантических факторов в процессе их формирования, а также анализируются теоретические подходы, представленные в современной лингвистике. В исследовании изучаются различные типы сложных предложений – сочинительные, подчинительные, смешанные, период и прозаическая строфа, рассматриваемые как разновидности сложных синтаксических конструкций. Особое внимание уделяется взаимосвязи языка и речи, их структурным, деривационным и коммуникативным особенностям. Анализируются научные взгляды таких учёных, как Ч. Хоккет, Н. Хомский, О. Есперсен, Г. Пауль и Ж. Антуан, выявляются общие и отличительные черты*

их концепций, связанных с синтаксической деривацией и глубинной структурой. Идея Г. Пауля о том, что «в двухкомпонентных сложных предложениях один компонент объясняет другой», подтверждается на примерах и рассматривается как важный признак, раскрывающий семантическую сущность сложных синтаксических конструкций. В статье также сопоставляются взгляды турецких и русских лингвистов, подчёркивается, что проблемы синтаксиса текста пока не получили окончательного решения. В заключение научно обосновывается взаимосвязь речи и текста при анализе сложных синтаксических конструкций, а также статус текста как синтаксической единицы, превышающей по объёму предложение.

**Ключевые слова** Сложная синтаксическая конструкция, деривация, семантика, сложное предложение, синтаксис текста, глубинная структура, межкомпонентные отношения

---

## **Derivational and Semantic Features of Complex Syntactic Constructions: Theoretical Foundations and Analytical Approaches**

**Xamrayeva Zebiniso Xaydar qizi**

[zebinisoxamrayeva25@gmail.com](mailto:zebinisoxamrayeva25@gmail.com)

Associate Professor, PhD,

Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Annotation** *This article examines the nature of complex syntactic constructions, the interrelation between syntactic and semantic factors in their formation, and analyzes the main theoretical approaches in modern linguistics. The study examines various types of complex sentences – compound, complex, mixed, period, and prosaic stanza – considered as forms of complex syntactic constructions. Special attention is given to the interrelationship between language and speech, focusing on their structural, derivational, and communicative properties. The scientific views of Ch. Hockett, N. Chomsky, O. Jespersen, G. Paul, and J. Antoine are analyzed, highlighting both the shared and divergent aspects of their theories concerning syntactic derivation and deep structure. G. Paul's idea that "in two-component complex sentences, one component explains the other" is illustrated with examples and interpreted as an important feature revealing the semantic essence of complex syntactic constructions. The article also compares the perspectives of Turkish and Russian linguists, emphasizing that the issues of text syntax have not yet been fully resolved. In conclusion, the interconnection between speech and text in the analysis of complex syntactic constructions is scientifically substantiated, and the status of the text as a syntactic unit larger than the sentence is justified.*

**Keywords** *Complex syntactic construction, derivation, semantics, complex sentence, text syntax, deep structure, intercomponent relation*

Tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyoti davrigacha bo'lgan uzoq va ko'p bosqichli tarixida insonning tili, uning paydo bo'lishi, rivojlanish va taraqqiy etish bosqichlari xususidagi qiziqishlarga javob topishga, tilning ishlash prinsiplari, uning ichki tuzilishi, birliklari, tilning nutq bilan bog'liqligi, til va nutqning uzviyligi va o'zaro ziddiyati, til-nutq-nutqiy faoliyat munosabatlari singari masalalar tavsifiga bag'ishlangan izlanishlarga katta ahamiyat qaratildi. Ayni davrgacha bu boradagi ilmiy bahs va munozaralar, tortishuv va tadqiqotlar fan taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'ziga mos va o'z davri imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uzluksiz davom etib kelmoqda.

Bosib o'tilgan bu bosqichlarda erishilgan yutuqlar qanchalik ko'p va qimmatli bo'lmasin, ularda muayyan kamchiliklar, bo'shliqlarning borligi tufayli erishilgan natijalar ma'lum darajadagi qoniqish hissini paydo qilgan bo'lishiga qaramay, kishilarni to'la qoniqtirgan emas. Bunday yutuqlar ichida o'zning davri uchun ham, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlari uchun ham ma'lum darajada o'z maqomini saqlab kelayotgan ilmiy xulosalar ham borki, bular fan taraqqiyoti, insoniyatning o'zi va uning ongidagi olam xususidagi qarashlarining ifodasi, tavsifi sifatida uni qoniqtiradi. Biroq uzoqroq vaqt sinovlari bunday yutuqlarni ham qaysidir o'rinlarini izohtalab deb bilishni, unga ilmiy nuqtayi nazardan qayta nigoh tashlash ehtiyoji borligini tadqiqotchilar oldiga yangi vazifa sifatida yoki erishilgan yutuqlarning mavjud bo'shlig'ini to'ldirishga bo'lgan ehtiyoj sifatida qo'yadi.

Bunday munosabatlar fan taraqqiyotida qayta-qayta namoyon bo'laveradi, takrorlanaveradi. Nazarimizda, shunday bo'lishi ham taraqqiyotga va mukammallikka erishishning bosqichma-bosqich amalga oshishini ta'minlashning insoniyat qodir bo'lgan yo'lidir. Biroq, ilmni egallash, uni o'zi uchun kuch-qudrat manbasi sifatida tasarruf etmoqchi bo'lgan inson uchun bu o'rinda

erishilayotgan natijalarning nisbiy nomukammalligi insonning tilini uning o'zidan tashqarida tadqiq etilganida, boshqacha aytganda, inson omili mazkur tadqiqotlarning markazida turishi o'rnida inson subyekt sifatida tadqiqotga kirishar ekan, o'zining ajralmas imkoniyati – unsuri bo'lgan tilga alohida obyekt sifatida yondashayotganida deb bilamiz.

Bizningcha, bu holat til va uning tadqiqiga bag'ishlangan barcha jabhalarda, jarayonlarda mavjuddir. Shu bois ham, til va nutq, uning birliklari, bu birliklarning o'zaro munosabati, ularning nominativ, kommunikativ va boshqa aspektlaridagi xos xususiyatlarining ayrimlari munozarali va muammoliligicha qolmoqda.

Bunday holatlarning borligi, ularning tadqiqotlarda qayta-qayta o'rganilishining sabablari ham, balki shunda bo'lsa ajab emas. Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida til nutqning yuzaga kelishi uchun potensial, nutq tilning namoyon bo'lishi uchun imkoniyat sifatida qaralishi masala mohiyatining bir tomonini tashkil qiladi. Uning ikkinchi tomonida, o'z o'rnida, tilning takomillashuvi, uning rivoji va zamonaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, mukammallashib borishida nutqning rolini boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmasligi turadi.

Bunday yondashuvni talab qiluvchi masalalar katta miqdorni tashkil etadi. Biroq ular orasida nutqda sodir bo'ladigan birliklar masalasi bugungi kunda har tomonlama o'rganilishiga hayotiy ehtiyojlar zarurat tug'dirmoqda. Ana shunday masalalardan biri bu murakkab sintaktik qurilmalar, ularning derivatsion va semantik xususiyatlarining lingvistik tavsifidir.

Murakkab sintaktik qurilma termini tilshunoslik fani taraqqiyotining keyingi bosqichlarida nisbatan keng qo'llanilmoqda. Mazkur tushuncha va buni ifodalovchi termin zamirida qo'shma gap tushunchasi va uni anglatuvchi mohiyat mujassam ekani ko'proq uchraydi. Biroq, biz, mazkur ishimizda

murakkab sintaktik qurilma deganda nutqning gapdan katta va abzasdan kichik bo'lgan, o'z navbatida, qurilishi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra gap va abzasdan tubdan farqlanuvchi sintaktik qurilmalarning barchasini nazarda tutmoqdamiz.

Aslida murakkab sintaktik qurilma tushunchasi sodda gaplardan katta bo'lgan, birdan ortiq predikativ markazga ega sintaktik qurilma sifatida namoyon bo'luvchi, odatda, qo'shma gap termini ostida jamlangan barcha tipdagi qurilmalar: bog'langan qo'shma gaplar, (biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap, zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap, ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap, boshqa vositalar bilan yoki bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap), ergashgan qo'shma gaplar (ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, hol ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergashgapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, maqsad ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap), murakkab qo'shma gap (bir necha ergash gapli qo'shma gap, bir necha boshgapli qo'shma gap, aralash turdagi qo'shma gap), period, prozaik strofa, frazadan katta birlik, murakkab sintaktik birlik, murakkab sintaktik butunlik kabi atamalar bilan beriladigan sintaktik qurilmalarning barchasini birdek qamrab oladi. Mazkur sohada jahon tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida, o'zbek tilshunosligida ham muayyan tadqiqotlar olib borilgan va ular izchillik bilan davom ettirilmoqda.

T.A. van Deyk matn shakllanishi haqida gapirganida, u matnda faqat gaplarning bog'lanish munosabatiga emas, balki nutqiy aktlarning bog'lanish munosabati mavjudligiga e'tibor qaratadi (van Deyk, 2000; 308). Ko'rinadiki, fikrlar munosabatida ham bog'lanish mavjuddir va shu bois ham murakkab sintaktik qurilmalarda sintaktik va semantik bog'lanish mujassamdir. Demak, mazmuniy ifodaning murakkablashgan

xarakterli ko'rinishi sintaktik strukturada ham o'z darajasidagi murakkablashishni shakllantiradi.

Qayd etish lozimki, murakkab sintaktik qurilmaning shakllanish asosida nafaqat sintaktik, balki semantik omillar ham birdek mujassamdir. Shu bois ham mazkur birliklarning sintaktik xususiyatlarini o'rganish barobarida, parallel tarzda uning semantikasiga ham e'tibor qaratish muhimdir. Agar shu yondashuvga to'la amal qilinsa, o'ylaymizki, kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Bunda derivatsiya tushunchasini odatdagi yasalish ma'nosida emas, balki tom ma'nodagi shakllanish, hosil bo'lishning so'z va undan katta birliklarning ham mavjudligi, ularning shakllanishida nutq va inson omili, bundan tashqari, derivatsiyaning sintaktik qonuniyatlar bilan uzviylikdagi taraqqiyoti masalalarining ham e'tiborga olinishi natijasida yuzaga kelgan ilg'or qarashlar hisobga olinmog'i lozim (Kurilowicz, 1936; 122). Eje Kurilovich qayd etganidek, leksik va sintaktik derivatsiyalar biri boshqasidan farqli tomonlariga ega ekan, buni lingvistik tadqiqotlarda hisobga olish, ularning umumiylikka asoslangan tomonlarini ham inkor etmagan holda, derivatsiyaning har bir birlik va tilshunoslikning har bir sohasidagi mavjud qonuniyatlar bilan bir qatorda maqsadga muvofiq tarzda qo'llash kutilgan samarani berishini nazarda tutmoq kerak bo'ladi. Shunga ham e'tibor qaratish lozimki, Eje Kurilovich bu borada ilk asosli fikrlarni bayon qilgan bo'lsa ham, uning o'zi sintaktik derivatsiyani tom ma'noda tavsiflagan emas. Ayni masalada uning qarashlari leksik derivatsiyaga ko'proq tegishli ekani bilan namoyon bo'ladi. Uning qarashlari leksik ma'no va transformatsiyaga oid masalalar doirasida bo'lganini nazarda tutsak, masala mohiyatiga bo'lgan yondashuv yo'nalishini aniq tasavvur qilishimiz mumkin.

Sintaktik qurilmalarning shakllanishi, ularning mavjud holatini lingvistik tavsiflash masalasi grammatika ilmiga bevosita daxldor ekani barchamizga yaxshi ma'lum. Bunda sintaktik qurilmaning faqat tashqi ifodasi emas, balki unda zohir bo'lishi nazarda tutilgan

botiniy, ichki yoki tub struktura muhim sanaladi. Ana shu tub strukturaning yuzaga chiqishi, kommunikativ funksional qiymat kasb etishi tashqi struktura orqali amalga oshadi. Buni tashqi grammatik struktura masalasi tavsifi nuqtayi nazaridan amerikalik tilshunos Ch. Hockett qarashlarida kuzatish mumkin (Hockett, 1958; 89). Ch. Hockettning bu boradagi qarashlari boshqa tilshunoslarning fikrida ham aks etdi. N. Chomskiyning qarashlarida tub struktura g'oyaviy xarakter kasb etadi va sintaktik strukturada namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, N. Chomskiyning fikriga ko'ra, tub struktura sintaktik derivatsiyani vujudga keltiruvchi stimulni taqozo qiladi. Uning sababidan sintaktik qurilma tashqi sintaktik ko'rinishiga ega bo'ladi (Chomsky, 1968; 15-16). Tub struktura borasida shunga yaqin munosabatni O. Espersonda ham kuzatish mumkin. Uning qarashlarida tub struktura mazmuniy munosabat sifatida mantiqiy xarakter kasb etadi. Bu tomondan O. Esperson bilan N. Chomskiy qarashlarida muayyan yaqinlik mavjuddir. Bu yaqinlik, nazarimizda, ularning mazkur tushunchani mantiqiy kategoriya sifatida tavsiflashidadir (Есперсен, 1985; 404; Chomsky, 1968; 15-16).

Qayd etish lozimki, tilshunoslik va mantiq bir-biri bilan uzviylikdagi fanlardir. Biroq ularning ish ko'rish prinsiplarida, o'z ichki qonuniyatlarida, o'rganish obyektiga bo'lgan munosabatida va boshqa shu kabi ko'plab tomonlarida katta farqlar mavjuddir. Biroq, tilshunoslik ham, mantiq ham tilni va tafakkurni o'z maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda o'rganadi. Bizningcha, buni to'g'ri qabul qilish va har ikki fan ham o'z yondashuvi, vazifasi va maqsadidan kelib chiqqan holda mazkur obyektlarga munosabatda bo'lishini tushunishimiz qiyinchilik tug'dirmaydi. Faqat bu jarayonda mutaxassislar tilshunoslik va mantiqning prinsip va qonuniyatlarini qorishtirib yuborishmasa bo'lgani. Fransuz tilshunosi J. Antuanning bu boradagi qarashlari o'ziga xosdir. Uning murakkab sintaktik qurilma hisoblangan bog'langan qo'shma gaplar haqidagi qarashi va ergashgan qo'shma

gap haqidagi qarashlarida o'zaro bir-birin inkor qiluvchi, boshqacha aytganda izohtalab tavsifni uchratish mumkin (Antoine, 1959; 196). J. Antuan tobe-hokim munosabatli bog'lanishlarda mantiqiy qonuniyatning asos bo'lishini, teng bog'lanishli qurilmalarda komponentlararo sintaktika faqat lingvistik omillarga tayanayotganini aytadi. Biroq bunda mazkur qurilmalarning har ikki tipida ham derivatsion jarayon tavsifi ularning lingvistik qonuniyatlar asosida sodir bo'layotganini qayd etish imkonini beradi. Mantiqiy yondashuv esa, ularning mazmuniy tomonidagina qidirilishi mumkin, xolos.

G. Paul teng komponentli qo'shma gap xususida fikr bildirganida, bu sintaktik qurilma tipiga xos muhim tomonlaridan biri ularning har ikkisiga xos bo'lgan muhim jihat sifatida biri birini izohlashini alohida ko'rsatib o'tadi (Paul, 1937; 148).

Uning ushbu fikriga turlicha munosabatlar bildirilgan bo'lishiga qaramay, biz mazkur munosabatni to'g'ri deb bilamiz. Chunki qayd etilgan munosabat murakkab sintaktik qurilmalarning bu tipida mavjuddir.

Quyidagi misol G. Paul ta'kidlagan fikrni – ya'ni ikki komponentli qo'shma gaplarda komponentlarning biri ikkinchisini izohlashi holatini yaqqol tasdiqlaydi.

**Masalan:** *The sun had already set, and the sky was turning dark.*

Mazkur murakkab sintaktik qurilma ikki mustaqil komponentdan tashkil topgan: *The sun had already set* hamda *the sky was turning dark*. Bu yerda ikkinchi komponent – *the sky was turning dark* – birinchisini **izohlaydi** va **natijaviy holatni ochib beradi**. Ya'ni, quyosh botgani sababli osmon qorayganini bildiradi. Demak, bu komponentlar o'zaro **semantik bog'lanishda** bo'lib, biri ikkinchisini **izohlaydi, to'ldiradi** va **mazmunni kengaytiradi**.

Ikkinchi misol tahlilida ham xuddi shu kabi munosabatni kuzatishimiz mumkin.

**Masalan:** *Quyosh botdi va osmonni qorong'ulik qopladi.*

Bu murakkab sintaktik qurilmada ham birinchi qism – *Quyosh botdi* – asosiy hodisani

bildirsa, ikkinchisi – *osmonni qorong'ulik qopladi* – shu hodisaning natijasini yoki izohini beradi. Shunday qilib, ikkinchi komponent birinchining semantik izohi sifatida keladi, bu esa G. Paul aytganidek, ikki komponentli qo'shma gaplarning muhim belgisidir.

Bunga muvofiq bo'lmagan qarashni turk tilshunosligida kuzatamiz. Bunda teng komponentli qo'shma gaplarda komponentlarning mustaqil ekani, ularning har biri nisbiy mustaqil fikr ifodasini berishi, komponentlararo sintaktik munosabatni shakllantiruvchi bog'lovchi vositalar ularni birlashtirishi qayd etiladi (Karahana, 1999; 167).

Bizningcha, mazkur fikrning izohtalab o'rnini ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, sintaktik qurilma murakkab tuzilishni shunchaki tashqi omil asosida emas, balki tom ma'nodagi mazmun, mohiyatning ifodasini berish uchun olmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yuqorida keltirilgan olimlarning qarashlaridagi tub strukturaning mavjudligini va uning bu o'rinda ham muhim roli borligini ko'rsatadi.

Bunday birikuvdagi sintaktik qurilmalar xususida turk tilshunosligida mavjud qarashlarni o'rganar ekanmiz, bog'langan qo'shma gaplarning bog'lovchili va bog'lovchisiz turlarining bir-biridan ajratilmaganining ham guvohi bo'lishimiz mumkin (Bangu o'g'lu, 1998; 628).

Mazkur qarashdagi asosli o'rin sifatida ularning murakkab sintaktik qurilma sifatidagi holatini qayd etamiz. Chunki bunda komponentlararo derivatsiyani shakllantiruvchi operator (bog'lovchi vosita) nimadan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, operandlar (birikuvchi qismlar) munosabatida farqli holat kuzatilmaydi.

Qayd etilgan munosabatlar matn tilshunosligida hali o'z yechimini kutayotgan, o'z asoslariga tom ma'noda ega bo'lish uchun yana uzoq vaqt kerakligini ko'rsatadi (Harweg, 1974.)

Sintaktik qurilmalarning dinamik xarakterdagi barcha tiplari uchun matn umumiy planda qo'llanish makoni vazifasini bajaradi. Shunday ekan, matn muammolari keng ko'lami

ekanini inkor etib bo'lmaydi. Bu borada K. Gauzenblas matn muammolarining bir necha yo'nalishda ekani, ularning majmuasi jam bo'lib, matnni shakllantirayotgan, voqelantirayotgan, shuning barobarida unga nutq bilan bog'liq hosilalik maqomini taqdim etayotgan xususiyatlarni o'rganish orqali belgilanishi kerakligini bayon etadi (Hausenblas, 1972).

Biroq tilshunoslikda matn va uning komponentlarini belgilash borasida uning yozma ko'rinishini yuqori o'ringa qo'yilishi ko'proq kuzatiladi. Shu sababli ham matn tushunchasi haqidagi tasavvurlarda uning yozma shakli ustivorlik qiladi. Bu boradagi fikr hamma vaqt ham birdek qo'llab-quvvatlanmaydi. Shu bois, uning og'zaki shaklini ustun hisoblaydigan munosabat egalari ham mavjud (Блумфилд, 2002.). Bizningcha, mazkur qarashning ham asosli tomoni bor. Chunki matn nutq asosida vujudga kelishini, shu orqali shakllanishini hisobga olganda, yozma matn og'zaki matnning suratini taqozo qiladi. Matn va uning sintaktikasi va semantikasi bilan bog'liq yaxlitlik uzvilikda va izchillikda tadqiq etilmagan. Matn komponentlarining o'zaro munosabati va bog'lanishini gapning tarkibidagi komponentlar munosabati tadqiqi darajasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Gap haqidagi sintaktik va semantik nazariyaga qiyos qilinganda matn sintaktikasi va semantikasi u darajada hali o'rganilmaganligini qayd etish mumkin. Gap doirasidagi sintaktikani va semantikani tadqiq etish uchun qo'llanilayotgan tahlil usullarini matn va uning gapdan katta komponentlariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Shu bois, gap va uning tarkibidagi birliklar munosabati kichik sintaksisning obyekti bo'lsa (Turobov, 2023; 64), gap va undan katta birliklarning sintaktik munosabatlarini tahlil qilish uchun undan kattaroq birliklarning sintaktikasini ochishga qodir bo'lgan yangicha yondashuvlar talab etiladi.

Demak, murakkab sintaktik qurilma maqomidagi har qanday birlik matn

komponenti sanaladi. Bundan ko'rinadiki, murakkab sintaktik qurilmalarning istalgan tipi nutqda shakllanadi va ularning barchasi ham birdek nutqning gapdan katta birligi maqomiga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, murakkab sintaktik qurilmalar til tizimining eng yuqori sintaktik birliklaridan biri bo'lib, ularning shakllanishida sintaktik va semantik omillar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Bu birliklar nutq jarayonida yuzaga chiqadi va gapdan katta, ammo abzasdan kichik birlik sifatida matnning semantik va kommunikativ yaxlitligini ta'minlaydi. G. Paul ta'kidlaganidek, ikki komponentli qo'shma gaplarda komponentlarning biri ikkinchisini izohlashi

ularning semantik bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, N. Chomskiy, O. Espersen va boshqa olimlarning tub struktura haqidagi qarashlari sintaktik derivatsiyaning nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Turk va rus tilshunosligida mazkur qurilmalar haqidagi turli fikrlar mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy jihati – sintaktik birliklarning semantik asosda birlashishidir. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, murakkab sintaktik qurilmalarni o'rganishda mantiqiy va lingvistik omillarni birgalikda tahlil qilish zarur. Matnning til tizimidagi o'rni, uning gap bilan o'zaro aloqasi, hamda murakkab sintaktik birliklarning matn tarkibidagi funksional roli bundan keyingi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb masala bo'lib qoladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Antoine, G. (1959). *La coordination en français moderne*. Paris.
2. Bangu o'g'lu, T. (1998). *Türkçenin grameri*. Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi.
3. Chomsky, N. (1968). *Language and mind*. New York, NY: Harcourt, Brace & World.
4. Harweg, R. (1974). Textlinguistik. In *Prospektiken der Linguistik* (Bd. 2). Stuttgart.
5. Hausenblas, K. (1972). *Vystavba jazykovych projern a styl*. Praha.
6. Hockett, C. (1958). *A course in modern linguistics*. New York, NY: Macmillan.
7. Karahan, L. (1999). *Türkçede söz dizimi: Cumle tahlilleri*. Ankara: Baski.
8. Kurilowicz, J. (1936). *Dérivation lexical et dérivation syntaxique*. Paris: BSL.
9. Paul, H. (1937). *Prinzipien der Sprachgeschichte*. Halle.
10. Блумфилд, Л. (2002). *Язык*. Москва.
11. Дейк, Т. А. ван. (2000). *Язык. Познание. Коммуникация*. Москва: БГК им. И. А. Бодуэна де Куртенэ.
12. Espersen, O. (1985). *Философия грамматики*. Москва: Иностранная литература.
13. Turobov, A. (2023). *Kichik sintaksisi muammolari: Filol. fan. dok. diss. avtoref*. Samarqand.